IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA NORMA IJODKORLIGI: “AQLLI TARTIBGA SOLISH” (SMART REGULATION) PRINSIPLARI

Durdona Xolliyeva Dilmurod qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Davlat boshqaruvi huquqi” magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20351204

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asrida norma ijodkorligi jarayonining zamonaviy transformatsiyasi hamda “aqlli tartibga solish” prinsiplari tahlil qilingan. Xususan, raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflik, moslashuvchanlik, ma’lumotlarga asoslangan norma ijodkorligi hamda inson manfaatlari ustuvorligi prinsiplari yoritilgan. Shuningdek, norma ijodkorligi jarayonida sun’iy intellekt, raqamli monitoring, elektron muhokama va analitik tizimlardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada O‘zbekistonda norma ijodkorligini raqamlashtirish istiqbollari hamda aqlli tartibga solish mexanizmlarini joriy etishning huquqiy ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar

Norma ijodkorligi, aqlli tartibga solish, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish prinsipi, ochiqlik va shaffoflik, moslashuvchanlik, sun’iy intellekt, elektron hukumat, huquqiy monitoring, Big Data, normativ-huquqiy hujjatlar, raqamli boshqaruv, kiberxavfsizlik, inson huquqlari, huquqiy ekspertiza.

Annotation

This article analyzes the modern transformation of rule-making in the era of digital technologies and the principles of “smart regulation.” Particular attention is paid to the principles of digitalization, openness and transparency, flexibility, data-driven rule-making, and the priority of human interests. The article also highlights the importance of using artificial intelligence, digital monitoring, electronic public discussions, and analytical systems in the rule-making process. In addition, the prospects for the digitalization of rule-making in Uzbekistan and the legal significance of implementing smart regulation mechanisms are examined.

Keywords

Rule-making, smart regulation, digital technologies, digitalization principle, openness and transparency, flexibility, artificial intelligence, e-government, legal monitoring, Big Data, normative legal acts, digital governance, cybersecurity, human rights, legal expertise.

Аннотация

В статье анализируется современная трансформация процесса нормотворчества и принципы «умного регулирования» в эпоху цифровых технологий. В частности, освещаются принципы цифровизации, открытости и прозрачности, гибкости, нормотворчества, основанного на данных, и приоритета интересов человека. Также раскрывается важность использования искусственного интеллекта, цифрового мониторинга, электронных обсуждений и аналитических систем в процессе нормотворчества. В статье анализируются перспективы цифровизации нормотворчества в Узбекистане и правовое значение внедрения механизмов интеллектуального регулирования.

Ключевые слова
Нормативное творчество, интеллектуальное регулирование, цифровые технологии, принцип цифровизации, открытость и прозрачность, гибкость, искусственный интеллект, электронное правительство, правовой мониторинг, большие данные, нормативные документы, цифровое управление, кибербезопасность, права человека, правовая экспертиза.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Sun'iy intellekt, elektron hukumat, blokcheyn, katta ma'lumotlar va raqamli platformalar huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda an'anaviy norma ijodkorligi mexanizmlari zamonaviy ehtiyojlarga to‘liq javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli huquq tizimida "aqlli tartibga solish" konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi shiddatli raqamli transformatsiya davri an'anaviy huquq ijodkorligi tizimi oldiga jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Texnologiyalar qonunchilikka qaraganda tezroq rivojlanmoqda. "Aqlli tartibga solish" – bu huquqiy normalarni yaratishda zamonaviy texnologiyalar, tahliliy mexanizmlar va moslashuvchan boshqaruv usullaridan foydalanishga asoslangan yondashuvdir. Uning asosiy maqsadi – samarali, tezkor va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi normative-huquqiy tizimni shakllantirishdir. Aqlli tartibga solish tushunchasi haqida gapiradigan bo‘lsak, aqlli tartibga solish – davlat boshqaruvi va norma ijodkorligi jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ortiqcha byurokratiyani kamaytirish, normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish va huquqni qo‘llash samaradorligini ta'munlashga qaratilgan tizimdir. Bu konsepsiyaning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari mavjud. Ushbu konsepsiya tezkorlik, ochiqlik, moslashuvchanlik, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va fuqarolar manfaatiga yo‘naltirilganlik kabi jihatlari mavjud. An'anaviy norma ijodkorligida hujjatlarni ishlab chiqish uzoq vaqt talab qilsa, aqlli tartibga solishda raqamli monitoring va tahliliy platformalar orqali muammolar tez aniqlanadi va yechimlar ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasi"da davlat organlari vatashkilotlarida axborot tizimlari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma'lumotlarni e'lon qilish masalalari belgilandi.[1]

Aqlli tartibga solishning bir nechta prinsiplari mavjud. Raqamlashtirish prinsipi ham aqlli tartibga solishning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Norma ijodkorligi jarayonlarini elektron shaklga o‘tkazish ham qulay, ham foydali. Bu hujjatlar aylanishini soddalashtiradi va inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi. Misol sifatida elektron jamoatchilik muhokamasi, onlayn ekspertiza va avtomatlashtirilgan huquqiy monitoringni keltirishimiz mumkin. Raqamlashtirish prinsipi – norma ijodkorligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish, monitoring qilish va takomillashtirishni electron shaklda amalga oshirishga qaratilgan prinsipdir. Oddiy qilib aytganda bu prinsip norma ijodkorligini qog‘ozbozlik va sekin ishlovchi byurokratik tizimdan chiqarib, raqamli, tezkor va samarali tizimga aylantirishni anglatadi. An'anaviy norma ijodkorligida qonun loyihalari ko‘pincha uzoq vaqt davomida ishlab chiqiladi, idoralar o‘rtasida hujjatlar qo‘lda almashiladi va jamoatchilik ishtiroki cheklangan bo‘ladi. Raqamlashtirish prinsipi esa bu jarayonlarni elektron platformalar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston —2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son, 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son
https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2350/2154

orqali soddalashtiradi va tezlashtiradi. Mazkur prinsipning asosiy mohiyati – norma ijodkorligi faoliyatini texnologiyalar yordamida optimallashtirishdir. Bunda huquqiy hujjatlarni yaratish, tahlil qilish va monitoring qilish jarayonlari raqamli tizimlar asosida tashkil etiladi. Masalan: normativ-huquqiy hujjat loyihalarini elektron platformalarda ishlab chiqish, davlat organlari o‘rtasida hujjatlar almashinuvini elektron shaklga o‘tkazish, huquqiy ekspertizani avtomatlashtirish, jamoatchilik muhokamalarini onlayn tashkil qilish va normativ hujjatlarning ta’sirini elektron monitoring qilish. Bu norma ijodkorligi jarayonini samaradorligini oshiradi va vaqt hamda mablag‘ sarfini kamaytiradi. Raqamlashtirish prinsipining asosiy yo‘nalishlariga elektron norma ijodkorligi, elektron jamoatchilik muhokamasi, sun’iy intellekt va huquqiy tahlil hamda huquqiy monitoringni raqamlashtirish kiradi.

Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish” tushunchasini norma ijodkorligi jarayonining barcha bosqichlarida, shu jumladan norma ijodkorligining barcha subyektlarida norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan va hosil bo‘ladigan axborotni raqamli shaklga o‘tkazish sifatida ta’riflash mumkin.[2]

Elektron norma ijodkorligi. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini yaratish va kelishish electron tizimlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, bir qonun loyihasi bir vaqtning o‘zida bir nechta vazirlik yoki tashkilot tomonidan ko‘rib chiqiqlishi mumkin. Elektron tizim barcha taklif va tahrirlarni saqlab boradi. Natijada, vaqt tejaladi, inson omili kamayadi, hujjatlarning yo‘qolishi oldi olinadi.

Elektron jamoatchilik muhokamasi. Raqamlashtirish prinsipi fuqarolarning norma ijodkorligidagi ishtirokini kuchaytiradi. Qonun loyihalari internet platformalariga joylashtiriladi va fikr bildiradi, taklif beradi va e’tiroz bildiradi. Bu demokratik norma ijodkorligini ta’minlaydi. Masalan, ekologiyaga oid qonun loyihasi bo‘yicha oddiy fuqaro ham o‘z fikrini bildirib, norma mazmuniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Raqamlashtirish prinsipining norma ijodkorligida bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, tezkorlik ta’minlanadi. Hujjatlarni ishlab chiqish muddati qisqaradi. Ikkinchidan, ochiqlik kuchayadi. Fuqarolar norma ijodkorligi jarayonini kuzata oladi. Uchinchidan, shaffodlik oshadi. Yashirin manfaatlar va korrupsion omillar kamayadi. To‘rtinchidan, huquqiy ekspertiza sifati yaxshilanadi. Texnologiyalar xatolarni aniqlashga yordam beradi. Beshinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar sifati oshadi. Chunki qarorlar ko‘proq ma’lumot va tahlilga asoslanadi.

Raqamli texnologiyalar asrida norma ijodkorligi jarayonining samaradorligini ta’minlashda ochiqlik va shaffoflik prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi. Aqlli tartibga solish konsepsiyasi fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur prinsipga ko‘ra, har bir fuqaro qonun loyihalari bilan tanishish, ularni muhokama qilish hamda o‘z taklif va mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu esa norma ijodkorligini yopiq va faqat davlat organlari doirasidagi faoliyatdan chiqarib, jamoatchilik manfaatlarini hisobga oluvchi demokratik jarayonga aylantiradi.

Ochiqlik va shaffoflik prinsipining amaliy ahamiyati shundaki, u demokratik boshqaruvni mustahkamlaydi, davlat organlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi hamda korrupsion omillarning oldini olishga yordam beradi. Fuqarolar qonun loyihalarining yaratilish bosqichidanoq jarayonda ishtirok etsa, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy ehtiyojlarga ko‘proq moslashadi va ularning legitimligi kuchayadi. Shu sababli shaffof norma ijodkorligi sifatli qonunchilikning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda norma ijodkorligi moslashuvchanlik prinsipiga ham asoslanishi zarur. Chunki zamonaviy ijtimoiy

[2] В. А. Шаршун Автоматизированная информационная система «нормотворчество» как средство цифровизации нормотворческого процесса // доклады XIX Международной конференции, Минск, 19 ноября 2020 г. –С. 188
https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2350/2154

munosabatlar doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda va an’anaviy, qat’iy huquqiy mexanizmlar har doim ham ularga tezkor javob bera olmaydi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, kriptovalyuta, elektron tijorat va kiberxavfsizlik kabi yangi sohalar huquqiy tartibga solishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Moslashuvchanlik prinsipi shuni anglatadiki, normativ-huquqiy hujjatlar o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Bunda eskirib qoladigan qat’iy qoidalar emas, balki zaruratga qarab takomillashib boruvchi dinamik tartibga solish mexanizmlari muhim hisoblanadi. Chunki raqamli muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlar juda tez sodir bo‘ladi va huquq tizimi ham bu jarayondan ortda qolmasligi lozim.

Aqlli tartibga solishning yana bir muhim jihati – ma’lumotlarga asoslangan norma ijodkorligi prinsipidir. Zamonaviy norma ijodkorligi endilikda faqat nazariy qarashlar yoki umumiy ehtiyojlargagina emas, balki statistik ma’lumotlar, sun’iy intellekt imkoniyatlari va analitik tizimlarga tayanishi kerak. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi Big Data texnologiyalari norma ijodkorligida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyalar yordamida mavjud muammolar aniqlanadi, amaldagi qonunlarning samaradorligi baholanadi hamda kelajakdagi xavflar prognoz qilinadi. Natijada normativ-huquqiy hujjatlar aniq dalillar va tahlillarga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Bu esa asossiz, samarasiz yoki amaliyotga mos kelmaydigan hujjatlar qabul qilinishining oldini olishga xizmat qiladi.

Biroq raqamli texnologiyalarni norma ijodkorligiga joriy etishda inson manfaatlari ustuvorligi prinsipini unutmaslik muhimdir. Har qanday raqamli islohot markazida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari turishi kerak. Texnologiyalar inson hayotini murakkablashtirish uchun emas, balki unga xizmat qilish uchun joriy etiladi. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli xavfsizlikni ta’minlash, axborot daxlsizligini kafolatlash hamda kiberhuquqlarni mustahkamlash aqlli tartibga solishning ajralmas tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Aks holda texnologik taraqqiyot inson huquqlarining cheklanishiga yoki shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham norma ijodkorligini raqamlashtirish va aqlli tartibga solish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron hukumat tizimining rivojlantirilishi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yuvchi platformalarning faoliyati hamda davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi buning amaliy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston —2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son, 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2350/2154
2. В. А. Шаршун Автоматизированная информационная система «нормотворчество» как средство цифровизации нормотворческого процесса // доклады XIX Международной конференции, Минск, 19 ноября 2020 г. –С. 188
3. https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2350/2154
4. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Yuridik texnika va norma ijodkorligi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar.